

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIY VA BERDAQ

Ergash Ochilov

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,

*E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel: +998946204764
(O’zbekiston)*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning boy va rang-barang adabiy merosining Berdaq ijodiga ta’sirining turli qirralari tahlil doirasiga tortiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy an’ana, o’zaro ta’sir, mavzu, talqin, obraz, o’ziga xoslik. mahorat.

Аннотация: В статье анализируются различные аспекты влияния богатого и разнообразного литературного наследия Алишера Навои на творчество Бердака.

Ключевые слова: литературная традиция, взаимовлияние, тема, толкования, образ, своеобразие, мастерство.

Annotation: The article analyzes various aspects of the influence of Alisher Navoi's rich and colorful literary heritage on Berdaq's work.

Key words: literary tradition, relationship, theme, interpretation, image, self-image, mastery.

Alisher Navoiy o‘zidan keyingi nafaqat o‘zbek yoki turkiy xalqlar adabiyoti, balki butun Sharq so‘z san’atiga kuchli ta’sir o’tkazgan, badiiy tafakkur taraqqiyotida alohida davrni, yuksak bosqichni tashkil etgan favqulodda iste’dod sohibidir. Sharq so‘z san’ati o‘zigacha erishgan barcha yutuqlarni o‘zida mujassam etgan va uni yanada rivojlantirib, betakror badiiyat durdonalari bilan boyitgan mutafakkir shoir ijodi, xususan, turkiy adabiyot uchun etalon edi. Bu samarali ta’sirdan biror-bir turkiy xalq adabiyoti xoli emas. Bu adabiyotlarda Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilmagan, unga ergashmagan, undan ta’sirlanmagan, mahorat sabog‘ini olmagan qalam ahli yo‘q, desak sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Turklar ham, uyg‘urlar ham, ozarbayjonlar ham, qozoqlar ham, qirg‘izlar ham, turkmanlar ham, tatarlar ham, boshqirdlar ham, qoraqalpoqlar ham Navoiyni o‘z shoirlari deb biladilar va o‘z mumtoz adabiyotlarining zabardast namoyandasi sifatida o‘rganadilar. Chunki u bu xalqlardan barchasining milliy so‘z san’ati ravnaqiga katta hissa qo‘shgan.

Taniqli olim K.Quramboyevning ma’lumot berishicha, Navoiy asarlari Qoraqalpog‘istonda dastlab qo‘lyozma shaklida tarqalib, maktab-madrasalarda o‘qitilgan. Berdaq va Ajiniyozdan tortib to I.Yusupov va A.O‘tepbergenovgacha bo‘lgan shoirlar ulug‘ o‘zbek san’atkori ijodidan ta’sirlanib, unga ergashib asarlar yaratganlar, g‘azallariga tatabbular yozib, muxammaslar bog‘laganlar. Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh, Umar, Ayapbergan Musayevlardan tortib Abbaz Dabilov,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Sodiq Nurimbetov, Ibroyim Yusupovgacha bo‘lgan shoirlar Navoiy ijod chashmasidan bahramand bo‘lganini ko‘p bora ta’kidlashgan.

Atoqli qoraqalpoq shoiri Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaqning shoir sifatida shakllanishi va ijodiy takomilida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisherning Navoiy adabiy merosining juda katta ta’siri bor. “Izlar edim” she’rida “Navoiydan savod och”ganini e’tirof etgan Byerdaq bir umr o‘zining buyuk salafidan o‘rgandi, ta’sirlandi, ilhomlandi. Barmoq vaznida ijod qilgan Berdaq she’rlarida bu hayotbaxsh ta’sirning izlari yarq etib ko‘zga tashlanmasa-da, umumijodiga singib ketganini ko‘ribilib turamiz [4,190–201].

O‘tmishda maktab-madrasalarda Navoiy asarlari ham keng o‘qitilgani ma’lum. Binobarin, shoir asarlari qoraqalpoq xalqi orasiga ham keng kirib borgan. Lekin Berdaq madrasa tahsilini olish imkoniga ega bo‘lmagan. Bu haqda shoirning o‘zi shunday yozadi:

*O‘zimda yo‘q ortiq bilim,
Emas edim tolib ul-ilm,
Har nimaki sayrar tilim,
Xato ketsa, afv eting [2,89].*

Lekin she’rlaridagi e’tiroflaridan ma’lum bo‘lishicha, u Abulqosim Firdavsiy, Farididdin Attor, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Bedil, So‘fi Olloyor, Maxtumquli, Ajiniyoz, Kunxoja asarlarini mustaqil mutolaa qilgan va Sharqning bu mashhur so‘z san’atkorlaridan mahorat sabog‘ini olgan. So‘fi Olloyorni esa hatto o‘ziga pir darajasida ko‘rgan:

*Berdaq aytar, inshoolloh,
So‘fi Olloyor, pirim, qo‘lla... [2,163]*

Alisher Navoiy ilk devoni “Badoye’ ul-bidoya”ga yozgan debochasidayoq adabiyot – tarbiya vositasi ekanligiga urg‘u berib, har qanday badiiy asar ma’rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli bo‘lmasligi kerakligini qayd etib, jumladan shunday yozgan edi: “Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmaq‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoye’ mashaqqat tortilg‘on bo‘lg‘ay” [1,4,764]. Shundan keyin o‘zining ishqiy g‘azallari ham ma’rifiy va falsafiy baytlardan xoli emasligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Ayni jihatdan shoir merosi – ma’naviy-axloqiy tarbiyaning kuchli quollaridan biri. Inson tarbiyasi, kamoloti masalalarini o‘zbek adabiyotida hech kim Navoiydek haddi a’losida kuylamagan.

Yechish uchun fikr bandin,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Men ma’rifat izlar edim [2,53], –

deb yozgan Berdaq ham bir umr ma’rifat izlab va ma’rifat tarqatib yashadi. U so‘zni ma’rifat tarqatish vositasi deb bilar edi. She’r o‘quvchiga faqat estetik zavq bag‘ishlabgina qolmay, unga ma’rifiy bilim ham berishi, uni ma’naviy jihatdan boyitishi kerak. Ayni jihatdan Berdaqning hikmatli so‘zdan, pand-nasihatdan, falsafiy mulohazalardan, hayotiy xulosalardan xoli biror she’ri yo‘q ekanligi beziz emas. Musa baxshi ta’rifiga bag‘ishlagan she’rida ham uning boshqa baxshilardan ustunligini aynan so‘zlarining bari nasihat ekanligi bilan izohlaydi:

Qulmambetning so‘zi uyat,

Xolmurodning sozi ziyod,

So‘zları bari nasihat,

Aqling o’sтирар Musaning [2,158].

Ma’lumki, qadim ul-ayyomdan ma’no-mazmuni teran va serqirra, uslubi murakkab, tili og‘ir, ayniqsa, ramz-u timsollarga boy asarlarga turli darajadagi sharhlar yozib kelingan. Shu ma’noda, Berdaqning “Xalq uchun” deb atalgan mo‘jaz doston darajasidagi salmoqli she’rini Alisher Navoiyning mashhur:

Odami ersang, demagil odami

Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami [1,6,210], –

degan baytiniig batafsil nazmiy talqini va sharhi deyish mumkin.

“Xamsa”ning ilk dostoni – “Hayrat ul-abror”ning tashna zaminni yomg‘ir qatrалари bilan serob etadigan bo‘liq bulut kabi boshqalarga foyda yetkazuvchi kishilar ta’rifiga bag‘ishlangan 13-maqolatida xalqqa zarar va foyda yetkazuvchilar haqidagi fikr-mushohadalarining xulosasi sifatida kelgan “Agar sen chin inson bo‘lsang, xalq g‘amini o‘zining g‘ami deb bilmaydigan kishini odam dema” ma’nosidagi ayni bayt Alisher Navoiyning hayotiy dasturi, umrining bosh shiori, ulug‘ shoir insonparvarligi va xalqparvarligining oliy darajadagi badiiy ifodasi deyish mumkin. Umuman, bu bayt chinakam inson umrining asosiy qoidasi, uning hayot kodeksi bo‘lishi lozim. Ayni jihatdan shams ul-millat hayoti, faoliyati va ijodi bu borada ibrat namunasi hisoblanadi.

“Yagona suyanchim xalqim – panohim”, “mening ichim kuyar xalq uchun”, “Sarf etarman bor kuchimni xalq uchun”, “Men so‘z aytdim doim ulug‘ xalq uchun”, – deya yonib-kuyib yozgan o‘z yurtining chinakam fidoyi va jonkuyar farzandi Berdaq ham “Xalq uchun” she’rida odamlarni xalqqa xizmat qiladigan va xizmat qilmaydigan ikki katta guruhga ajratadi. Ular, o‘z navbatida, yana ichki guruhlarga bo‘linib ketadi. Xalqqa xizmat qilmaydiganlar guruhiga faqat o‘zini o‘ylaydigan xudbinlar, birovga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan yomonlar, boshqalarning haqini tortib oladigan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

zolimlar, inson hayotining asl mazmun-mohiyati nimadaligini anglamaydigan nodonlar, mol-dunyo to‘plashga haris baxillar kiradi. Tilanchilar ham shu toifaga mansub, chunki ularidan xalqqa biror naf tegmaydi. Xalqqa xizmat qiladiganlar guruhini esa umrini odamlarga yaxshilik qilishga baxshida etgan yaxshilar, xalq tarbiyasi va kamoloti yo‘lida jonini tikkan donolar, el yukini yelkasiga olgan mardlar, hojatbarorlikni shior qilib olgan oliyjanob kishilar tashkil etadi. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida:

Olam aro xalqini Yazdoni pok

Ahli najot etti-yu. ahli halok [1,6,95], –

ya’ni Xudoyi taolo bani basharni ikki guruhga: najot ahli va halok ahliga ajratdi deb yozganiday, Berdaq ham xalq uchun xizmat qilganlar o‘z nomini abadiyat lavhiga naqsh etishi-yu, xalqqa xizmat qilmaganlar badnom bo‘lishiga urg‘u beradi.

Shoirning komil e’tiqodiga ko‘ra oq-qorani tanigan, hayotning haqiqiy mazmuni nimadaligini anglagan oqil kishilar, o‘z xalqining taqdiri uchun qayg‘uradigan mard yigitlar “Umri bo‘yi xizmat aylar xalq uchun”. Zuvalasi yaxshilik suvi bilan qorilgan “Yaxshi odam tug‘iladi xalq uchun”. Holbuki, zolimlar qo‘lida har qancha mol-dunyo to‘plangan bo‘lmisin, bir zarrasini ham xalq farovonligi uchun sarflamaydi:

Zolimlar hech qachon qo ‘lida borin

Sarflamaslar bor bo ‘lsa-da xalq uchun [2,14].

Yomonlarni-ku gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi:

Yomonlar xalqni o ‘zdan past ko ‘rarlar,

Jabru sitam qilib, azob berarlar,

G‘ofillar shundayin davron surarlar,

Ko ‘nglim suymas bundaylarni xalq uchun... [12,9]

Yomon odam bilmas so ‘zining farqin,

Hamisha yomonlar o ‘zining xalqin,

Taratayin deya o ‘zining dong ‘in,

Zarar etkazadi doim xalq uchun [2,20].

Holbuki, shoir umrini ham, qalbini ham, ijodini ham xalqqa bag‘ishlagan fidoyi jondir:

O ‘lguncha aytarman so ‘zni xalq uchun.

Ajal yetib, o ‘lar bo ‘lsam men o ‘zim,

Yodgor bo ‘lib qolar ortimda so ‘zim,

Ko ‘rdi ko ‘p narsani hayotda ko ‘zim.

Oq-qorani bilgan ishlar el uchun [2,17].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Atoqli shoir Mirtemir Berdaq “Saylanma”siga yozgan so‘zboshisida yozganidek, o‘zi og‘ir va g‘ussali hayot yo‘lini bosib o‘tish barobarida, u “xalq chekkan azob-u uqubatlarga go‘daklikdan sherik bo‘ldi. Qoraqalpoq xalqi yelkasidagi qashshoqlik, sargardonlik, g‘ariblik unga yot emas, hammasi uning ham yelkasida: hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va o‘z boshidan kechirgan edi. Shuning uchun ham asarlarida o‘z tasvirini topmis o‘tgan asr hayot manzaralari chidab bo‘lmashlik darajada og‘ir, har she’ri bir bosiriq tush yanglig‘ ayanch, “dod” deb yuborgulik, “huv!” deb ovloqqa chiqib ketgulik darajada dahshatli dunyo, shu bilan birga ishongulik“ [3,5].

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida zolim shohlarning jirkanch basharalarini yuksak mahorat bilan hayotiy va ishonarli tasvirlagani ma’lum. Berdaqning zolim amaldorlar haqidagi chizgilarida ham ulug‘ salafining samarali ta’sirini ko‘ramiz.

Navoiy g‘azallaridan birida:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram [1,2,415], –

deb yozgan eli.

Bunday xalqparvalik namunalarini Berdaqning ham ko‘plab she’rlarida ko‘ramiz. U, hatto, zolimlarni sira hayiqmay o‘z nomi bilan fosh etadi:

Tingla bu so ‘zimni, Nurmurod oxun,

O’raysan sallangning necha qat pechin,

Mehnatkashni aldab, ko ‘p eysan haqin,

Sendan ko ‘ra olaqarg ‘a yaxshiroq.

O’rambet, Nurimbet, Jalol, Sulaymon,

Safar, Mirzo, Orzu, Erimbet – chayon,

Xalq qonini so ‘rgan gala beiymon,

Baringdan bizday bir gado yaxshiroq!

Huv, ana, o ‘ltirar Qulmurod, Musa,

Ko ‘ngli oqarmaydi ming chayib-yuvsa,

Faqirlarga baxtli, nurli kun tug ‘sa,

O’chimni olmasam, o ‘lgan yaxshiroq! [2,120]

Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko‘p bosh qotirgan, tiriklik va o‘lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma’nomazmuni xususida bir umr o‘ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o‘zicha yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tafakkur va shoirona o’tkir nigoh bilan uyg‘unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmat kabi jaranglashi shundan. Chunonchi, shoir olamning yaratilishi to‘g‘risidagi ko‘p yillik mushohadalarining natijasi sifatida dunyoda bir qil ham behuda yaratilmagan, basharti, men unda biror xato ko‘rsam, bu olamning nomukammalligidan emas, balki mening nuqtayi nazarimning xato ekanligidandir, degan teran va haqqoniy bir fikrni bayon etadi:

Bu korgahda xato kelmadi chu bir sari mo ‘y,

Xato mening nazarimdindurur, xato ko ‘rsam [1,3,424].

Bedaqning Haq yaratgan bu dunyo oliy bir muntazamlikka ega bo‘lib, unda aslida biror ayb-u qusur yo‘q mazmunidagi:

Bu dunyoning yo‘q nuqsoni [2,53], –

mistrasi ham ayni fikrlarga hamohang jaranglaydi.

Alisher Navoiy g‘azallaridan birida sham va parvona munosabatini yoritar ekan, parvonaning bag‘riga o‘t yoqqan shamning o‘zi ham o‘z yog‘ida qovriladi, deb lutf etgan edi:

Sham agar parvonani o‘rtar, o‘zi ham o‘rtanur [1,2,144].

Berdaq ham quyidagi misralarida salafiga jo‘rovozlik qilib, bulbul gulga qancha muttalo bo‘lsa, gul ham gulga shuncha mushtoq, deb yozadi:

Bulbul sayrab qo‘nsa gulga,

Gullar ham mushtoq bulbulga... [2,47]

Ma’lum bo‘ladiki, atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaq Alisher Navoiyni ijod yo‘lida o‘ziga rahnamo deb bilgan, buyuk salafi asarlarini sevib mutolaa qilgan, ulardan ta’sirlangan va ilhomlangan. Bu ta’sir izlari zohiran bo‘rtib ko‘rinmasa-da, xalaf shoir ijodining qat-qatiga singib ketgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, X jildlik.– Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Berdaq. Xalq uchun (Tarjimon, so‘zboshi va izohlar muallifi E.Ochilov). – Toshkent: “Ijod-print”, 2021.
3. Mirtemir. Ikki og‘iz so‘z... \| Berdaq. Saylanma (She’rlar va doston). – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
4. Quramboyev K. Navoiydan savod ochgan shoir \| Navoiyning ijod bo‘stonidan ilhomlanib... – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.